

Соның ушын да, айырым аўдармашылар аўдарманың екінши тил хэм усы тилдин менталитети менен уқсаслығын әхмийетли деп есапласа, басқалары аўдармада милий колориттиң оригинал мәнисин қалдырыў дурыс деп есаплайды. Усы еки көз қарастан әдебий аўдармада бир-бирин алмастырып турыўшы еки түрли аўдарма пайда болады – еркин хэм сөзбе-сөз аўдарма. Тексттиң әдебий аўдармасы аўдармашының дөретиўшилигиниң ашып бериўин талап етеди.

Айтылған пикирлердиң хәммеси бирқанша бир-бирине қарсы ойларды пайда етеди. Шет тилден екінши тилге аўдарылған жұмыстың бирқанша хәр түрли вариантларын табыўға бола ма деген сораў туўылады. Буған жуўап ретинде, мынандай тәжирийбе қыламыз, қарақалпақ тилиндеги үзиндини англис тилине ал кейнинен англис тилинен қарақалпақ тилине аўдарыўдың хэм аўдарылған текстти оригинал текст пенен қаншелли дәрежеде уқсаслығын салыстырың.

Жуўмақлап айтқанда, адамлар бир-бирин түсиниўге, әдебий шығарманың руўхый байлығын бөлисиўге хәрекет қылған хэм даўам етеди, ал аўдармашылар болса, хәр түрли мәдениятлар арасындағы көпир бола отырып, әжайыбатлар жаратыўға хәрекет қыла береді.

#### Әдебиятлар:

1. Bakoeva M., Muratova E., Ochilova M. English Literature, 2010. 263p
2. Iriskulova M.A., Kuldashev A.M. Theoretical Grammar of the English Language. – Tashkent, 2008. 208 p.
3. Buranov J.B, Muminov O. Practical Course in English Lexicology. – Т. “Ukituvchi” 1990. p.54

### “EVFEMIZM” – NUTQ VOSITASI SIFATIDA

*A.A.Baymatov, Jizzax Davlat Pedagogika Instituti*  
*D.O.Baxriddinova, Jizzax Davlat Pedagogika Instituti*

**Annotation:** This article discusses the concept of “euphemism” as a means of speech, as well as examples of this phenomenon in English and Uzbek.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada nutq vositasi bo’lmish “evfemizm” tushunchasi, hamda ingliz va o’zbek tillaridagi bu hodisaga keltirilgan misollar yuzasidan fikr bildiriladi.

Insoniyat yaralibdiki aloqa vositasi sifatida – Til muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyat rivojlanishi bilan tilda ham bevosita va bilvosita o’zagarishlar sodir bo’ladi. Ba’zi so’z va so’z birikmalari so’zlashuv jarayonidan chetda qoladi; ba’zi yangi so’z va so’z birikmalari jamiyat so’zlashuviga kirib keladi. Ana shunday o’zgarishlarga evfemizmlarni misol tariqasida keltirib o’tishimiz mumkin.

Xo'sh evfemizm nima?- Ushbu savolga javob tariqasida tilshunos olimlarning va lingvistik lug'atlarda qayd etilgan quyidagi ta'riflarini keltirib o'tamiz:

- **Evfemizm** so'zi yunoncha “eu”-yaxshi, “phemi”—gapiryapman so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, og'zaki yoki yozma nutqda qo'llaniladigan, ma'nosi neytral —vazifasiga ko'ra emotsional bo'lgan so'z bo'lib, qo'pol yoki —beodob so'zlar o'rniga qo'llaniladi. [1 ]

- A.A.Reformatskiy “**Evfemizmlar** –taqiqlangan (tabulashtirilgan) so'zlarning o'rniga qo'llanilishi mumkin bo'lgan so'zlardir “- deya ta'rif beradi.[3]

- “Лингвистический энциклопедический словарь”da esa : “**Evfemizm**-so'zlovchi uchun noo'rin, noxush, qo'pol tuyulgan so'z va ifodalar o'rniga ularga sinonim hisoblangan emotsional neytral so'zlardir” [2] deya izoh berilgan.

- A.Hojiyevning 2002 -yilda qayta nashr qilingan “Lingvistik terminlar izohli lug'ati”da evfemizmga quyidagicha ta'rif beriladi: - “ **Evfemizm** narsa-hodisaning ancha yumshoq formasidagi ifodasi; qo'pol, beadab so'z, ibora va tabu o'rnida qo'pol bo'lmagan, botmaydigan so'z, iborani qo'llash”.[4]

Yuqorida keltirilib o'tilgan ta'riflardan kelib chiqib shuni aytish joizki, evfemizmlar insoniyat o'rtasidagi o'zaro so'zlashuvda samimiylik va muloyimlik, shuningdek so'zlovchining qanday madaniyatga ega ekanligini ko'rsatuvchi lingvistik vosita sifatida til tizimida muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Shu o'rinda bir savol uyg'onadi: Evfemizmlar tilda qachon o'z aksini topgan? – Tilshunoslik tarixiga nazar solib, evfemistik ifodalar antik davr olimlari tomonidan ham ishlatilganligini o'qishimiz mumkin. O.M. Freydenbargning “Античные теории языкознания и стиля” asarida yunon olimlari Demokrit, Platon, Aristotel ham o'z asarlarida “ evfemizm ” tushunchasi tilga olinganligi haqida ma'lumot beradi.[5 b.3]

Ba'zi tilshunos olimlarning ilmiy qarashlariga ko'ra “ evfemizm ” tushunchasi dastlab XII-XV asrlarda ingliz tilida paydo bo'lgan.bundan tashqari XIV asrdagi fransuz madaniyati, XVI asrdagi nutqiy madaniyatni rivojlantirishga bo'lgan urinish, XIX asrga kelib rivojlangan nutqiy madaniyat ta'sirida evfemik iboralarning qo'llanilishi tobora kengaydi. XX asrga kelib esa ijtimoiy hayotning keng sohalarida evfemalashtirish yuzaga keldi. [ 5 ] Nutq jarayonidagi bu kabi o'zagarishlarni nafaqat bir millat tilida, balki dunyoning har bir tilida kuzatish mumkin.

Maqolamiz tadqiqi sifatida olingan har ikki tilda ham, evfemizmlarning bir nechta semantik guruhlari mavjud:

- Kasbga doir evfemizmlar
- Kasallikka doir evfemizmlar
- O'limga oid evfemizmlar
- Jinoyat uchun qo'llaniladigan evfemizmlar
- Siyosat uchun ishlatiladigan evfemizmlar va hz.

Ushbu guruhlardan o'limga va kasallikka oid evfemizmlarga misol keltirib o'tamiz:

- o'zbek tilida "o'ldi" so'zining evfemikasi sifatida- vafot etdi, dunyodan o'tdi, ko'z yumdi, yuragi to'xtadi kabi evfemik ifodalar qo'llaniladi;

-ingliz tilida esa - Passed away ,dearly departed, put to sleep, wearing cement shoes kabi misollarni aytishimiz mumkin.

Kasallikka doir evfemizmlar:

- o'zbek tilida: - qizamiq o'mida "oynoma"; chechak o'rnida "gul"; sil (tuberkuloz) o'mida "uzun og'riq"; pes o'mida "oq" kal o'rnida "siyqabosh".

-ingliz tilida: - o'sma kasalligi ( cancer) o'rnida " long illness ( uzoq muddatli kasallik )"; zahm va OITS ( syphilis and AIDS) o'rnida " social disease ( ijtimoiy kasallik )"; sil ( tuberculosis) o'rnida "lung trouble( o'pka tashvishi )" singari evfemik til birliklari qo'llanadi.

Tadqiqotimiz davomida yana shunday hodisaga duch keldikki, tillardagi ba'zi evfemizmlar turli davrlarda turli ko'rinishlarda qo'llanilgan. Jumladan, ingliz tilidagi " She is pregnant " ( U homilador) gap evfemasi davrlar o'zgarishida quyidagicha farqlangan:

(1) She has canceled all her social engagements. (1856)

(2) She is in an interesting condition. (1880)

(3) She is in a delicate condition. (1895)

(4) She is knitting little booties. (1910)

(5) She is in a family way. (1920)

(6) She is expecting. (1935)

(7) She is pregnant. (1956) [ 6]

Yuqoridagi gap evfemizimiz xilma- hil davriy o'zgarishlarga ega bo'lsada, amma semantik ma'nosi bir xildir. Barcha millat va elatlar tillarida o'zlarining etnik xususiyatlaridan kelib chiqib, ayrim tabulashtirilgan so'zlar o'rnida qo'llanuvchi evfemizmlar yuzaga keladi.

Maqolamiz yakuni sifatida shuni aytishimiz joizki, evfemizmlar - insoniyat nutqiy jarayonida tinglovchi tomon yo'llanayotgan ba'zi salbiy fikrlarni ijobiy tarzda yetqazib beruvchi muhim til vositasi sifatida hali hamon muhim ahamiyat kasb etmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Кацев А.М. Языковое табу и эвфемия. Л.ЛГПИ, 1989.— С.15.
2. Лингвисти ческий энциклопеди ческий слова рь. Советская энциклопедия.1989.— С.406
3. Реформатский А.А. Введение в языкознание, М.1967.— С.200
4. Хожиев А. Лингвистик терминлар изохли лугати. Тошкент, Укитувчи, 1974.— Б.56.
5. Қодирова Х.Б. " Ўзбек тилида эвфемизм ва дисфемизм". Ўқув-услубий қўлланма. Тошкент.2013, 3-бет
6. Samoskayte L. "21<sup>st</sup> century political euphemisms in English newspapers: Semantic and structural study" —МА paper, Vilnius 2011, page 10